



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND EDUCATION

BERLIN

universalconference.us

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND
EDUCATION**

Volume 01, Issue 04, 2024 (12-MAY)

Editor in Chief

Dr. Rajeev Ojha - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

Editorial Team

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof. Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRS, FIAPS, FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at

Eshkaraev Sadridin Chorievich - associate professor of the Department of Analytical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Chemical Science, Termez, Uzbekistan. esadir_74@rambler.ru

**METHODS OF IDENTIFYING PATHOMORPHOLOGICAL LESIONS IN
THE KIDNEYS OF OFFSPRING BORN UNDER CONDITIONS OF
CHRONIC POISONING IN THE MOTHER**

Aminova Mohinur Normurod qizi

aminovamohinur133@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Rahmatullayeva Shahlo Sherzod qizi

rahmatullayevashahlo9@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Orifboyev Jamshidbek Yandashali o'g'li

jeeck09032003gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Nuraliyeva Madina Ergash qizi

sayyoraabduraxmonova78@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Musurmonova Asal Isroilovna

asalmusurmonova@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

The purpose of the study: Acute kidney injury is the leading cause of nephrology consultation and is associated with high mortality rates. The primary causes of AKI include ischemia, hypoxia or nephrotoxicity. An underlying feature is a rapid decline in GFR usually associated with decreases in renal blood flow. Inflammation

represents an important additional component of Acute kidney injury leading to the extension phase of injury, which may be associated with insensitivity to vasodilator therapy. It is suggested that targeting the extension phase represents an area potential of treatment with the greatest possible impact. This article provides information on the methods of identifying pathomorphological lesions in the kidneys of offspring born under conditions of chronic poisoning in the mother.

Contents of the study : The kidneys are one of the most frequently injured retroperitoneal organs during abdominal trauma with blunt objects. The main task of forensic medical research in mechanical injuries is to establish the mechanism, lifetime and duration of injury . One of the most important functions of the kidney is the filtration and excretion of nitrogenous waste products from the blood. The measurements of elevated blood urea nitrogen (BUN) and creatinine serve as indicators of decreased renal function indicative of the decreased clearance of these waste products. AKI is currently defined as a rapid decline in the glomerular filtration rate (GFR) resulting in retention of nitrogenous wastes, primarily creatinine and blood urea nitrogen. Consequently, the diagnosis currently is dependent on the serial measurement over time of these substances in the blood of patients. The rapidity of this decline may occur over a time course of hours to months, but typically occurs over the course of hours to days. The ability of these measurements to serve as a surrogate marker of GFR is relatively imprecise and improved methods for evaluating GFR and a direct assessment of renal injury are sorely needed in the practice of medicine .

Research methods and materials: In recent decades, work has appeared devoted to kidney injury, but remains unexplored morphology of damage to this organ to resolve the issue of the peculiarities of the mechanisms of injury formation points. In addition, in the literature there are no reliable criteria by which one can establish the lifetime and duration of formation of kidney damage, including taking into account the influence on the development of reactive changes in some additional factors, such as shock. A second emerging marker used increasingly to assess acute renal injury is the presence of neutrophil gelatinase-associated lipocalin (NGAL, also known as lipocalin-2). Levels of NGAL expression in the kidney are normally low, but increase markedly as a result of renal cell damage. Elevated early in the etiology of acute kidney injury, resulting from ischemia or cisplatin exposure, NGAL was found to rise earlier than other, more commonly used urinary kidney injury markers such as creatinine, albumin, or cystatin C. Exposure to stressors during development has been shown to result in physiologic changes to the

developing offspring, changes that promote in utero survival. While such changes enhance survival in utero, they may result in greater disease risk later in life. However, few studies have examined such outcomes following exposure to NP. An investigation that examined the effects of titanium dioxide exposure during pregnancy in rats revealed microvascular impairments in the maternal uterine arterioles that resulted in cardiac mitochondrial insufficiency in the offspring that persisted through adulthood. In our previous studies, pregnant mice were exposed by inhalation to CdO NP, and while Cd was not measurable in the fetus, there were effects on neonatal growth and sex-dependent dyslipidemia in adult offspring fed a high-fat diet (report in preparation). Changes arising from stressors from development have also been associated with adult hypertension and kidney disease in humans. The primary goal of this offshoot study was to test the hypothesis that short-term, repeated inhalation exposure of pregnant mice to CdO NP results in kidney injury in the mother and neonate, as evidenced by changes in urinary levels and/or mRNA expression of Kim-1 and NGAL in neonatal kidneys.

Results and reasoning :Maternal kidneys recovered from dams at GD 10.5 ($n = 3-4$ /treatment group) were fixed in formalin and shipped to Colorado Histo-Prep for embedding, sectioning (5 μ m), and staining with hematoxylin and eosin. Tissue sections were viewed by light microscopy using a Nikon E400 epifluorescent microscope. Images were captured with a 40 \times objective using an Evolution MP digital air-cooled color camera equipped with Image Pro Plus (v. 7.0) image acquisition software. The scale bar indicates a length of 100 μ m. To evaluate consistency of these morphologic changes from one tissue sample to another, three images were captured from random fields of the renal cortex from each sample. Statistical analyses were performed using SAS. All data were analyzed by one-way analysis of variance with treatment and time as main effects. Real-time PCR values were compared for each treatment group by calculating the Δ Ct values for each individual sample and subtracting the Ct value for 18S rRNA from the Ct values for both Kim-1 and NGAL. Real-time PCR expression data, presented as Δ Ct values, were used for comparison between treatment groups using one-way ANOVA. A lower Δ Ct value represents a higher level of expression. Fold changes presented in the text were computed using the formula $2^{-\Delta\Delta Ct}$. When appropriate, post hoc testing was performed using Fisher's least significant difference (LSD) test. Data presented are means \pm SE.

Summary :Under normal conditions, animals have sufficient renal function to survive with only one functioning kidney. Unfortunately, this is not always the case

for animals with kidney damage. In some cases, the ability to measure the individual renal function is important because such cases may include the prospect of nephrotomy or nephrectomy . An assessment of the individual renal function can have a significant impact on the plan to surgically remove kidney stones or the entire kidney damaged by an infection or tumor . Non-invasive means of determining renal function in individual kidneys may be advantageous during planning for medical management or surgical intervention of renal diseases.

References:

- 1.Sapozhnikova M.A. Morphology of closed chest and abdominal trauma.M.: Medicine. 1988.
2. Sosedko Yu.I. Diagnosis of the main types of traumatic effects in trauma to the abdominal organs with blunt objects. Izhevsk: Expertise. 2001.
3. Novoselov V.P., Savchenko S.V., Sakovchuk O.A., Gritsinger V.A., Nadeev A.P. Assessment of the morphology of reactive changes in damage to soft tissues and kidneys in conditions of blood loss. Judicial Bulletinmedicine. 2013;4:24-28.
4. Novoselov V.P., Savchenko S.V., Gritsinger V.A., Sakovchuk O.A. Nadeev A.P. Inflammation as the basis for establishing limitation formation of damage. Bulletin of Forensic Medicine. 2014;2: 25-30

УДК: 528.577.1.046

ЕРЛАР КАДАСТРИНИНГ ХУДУДЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ ЮЗАСИДАН ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРНИ ЎРГАНИШ

Юнусов Бегенч Мавланбердиевич

т.ф.ф.д., (PhD) Давлат кадастрлари палатаси бош мутахассиси

Аннотация. *Ер кадастри тизими юзасидан хорижий тажрибаларни ўрганиш бу ер ҳисобини тўғри замонавий усулларда юритиш ҳамда ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш, ер кадастри қонуниятларининг ҳудудларда иқтисодий барқарорликни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан мақолада кадастр индикаторларининг иқтисодий самарасини ошириш, ҳудудларда иқтисодий ривожлантириш услубларини ишлаб чиқиш ва чет давлатларда ер кадастри жараёнларини тартибга солиш юзасидан маълумотлар берилган.*

Калит сўзлар: Кадастр, давлат кадастрлари, давлат кадастрлари ягона тизими, ер ҳисоби, кадастри тизими, ижтимоий-иқтисодий барқарорлик, ҳудуд, самарадорлик.

Аннотация. *Изучение зарубежного опыта по системе земельного кадастра имеет важное значение для правильного ведения земельного учета и рационального использования земельных ресурсов, обеспечения экономической стабильности земельно-кадастрового законодательства в регионах. С этой точки зрения в статье представлена информация о повышении экономической эффективности кадастровых показателей, разработке методов экономического развития регионов, регулировании земельно-кадастровых процессов в зарубежных странах.*

Ключевые слова: Кадастр, государственные кадастры, единая система государственных кадастров, земельный учет, кадастровая система, социально-экономическая стабильность, территория, эффективность.

Annotation *Studying foreign experience in the land cadastre system is important for the correct maintenance of land records and rational use of land resources, ensuring the economic stability of land cadastral legislation in the regions. From this point of view, the article provides information on increasing the economic efficiency of cadastral indicators, developing methods for the economic development of regions, and regulating land cadastral processes in foreign countries.*

Key words: Cadastre, state cadastres, unified system of state cadastres, land registration, cadastral system, socio-economic stability, territory, efficiency.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 октябрдаги ПҚ-405-сон Қарори асосан 2023 — 2026 йилларда давлат кадастрлари, геодезия ва картография соҳасини ривожлантириш бўйича Ўзбекистон Республикаси ҳудудида Миллий координаталар тизимини жорий этиш юзасидан хорижий тажрибани ўрганиш миллий координаталар тизимини яратиш бўйича техник лойиҳа ишлаб чиқиш, Республиканинг етук олимлари ва хорижий мутахассисларни жалб қилган ҳолда миллий координаталар тизимини яратиш ва синовдан ўтказиш, Миллий координаталар тизимини республикада жорий қилиш бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш бўйича йўл харитаси белгиланган[2].

Ўзбекистон Республикасида ерга нисбатан давлат мулкчилиги устуворлиги шароитида ер ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланиш ҳамда уни муҳофаза қилишни таъминлаш муҳим аҳамият касб этади. Ер бойликларидан қишлоқ хўжалигида асосий ишлаб чиқариш воситаси, иқтисодиётнинг барча тармоқларини жойлаштиришнинг ҳудудий базиси сифатида. аҳоли пунктларини барпо этиш мақсадларида фойдаланишни ташкил этувчи умум миллий бойлик, аҳоли фаровонлигини ва давлат тараққиётини таъминловчи асосий табиий ресурслардан бири ҳисобланади.

Юртимизда охириги йилларда ер муносабатларини тартибга солишнинг янги механизми яратилгани одамларни қийнаб келаётган кўпгина муаммоларга ечим бўляпти. Давлатимиз кадастр тизимининг вазифалари тубдан янгиланмоқда, десак ҳам бўлади. Бироқ бу йўналиш доимий ислохотларни талаб этади. Бу борада эса халқаро алоқалар, ривожланган хориж тажрибаси ҳам муҳим ўрин тутди. Сабаби, биз ер муносабатларида тенглик ва шаффофликни таъминлаш, ерга бўлган ҳуқуқларни ишончли ҳимоя қилиш, уларни бозор активига айлантириш ва бу орқали иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш йўлида янги босқични босиб ўтмоқдамиз. Мазкур жараён давлат ва халқ манфаатларида мувозанатни ушлаб берадиган ечимга келиш учун ҳам хорижий ҳамкорлар билан ўзаро ютуқ ва камчиликлар муҳокама қилиш ва энг муҳими, изчил ўрганишликни талаб қилади. Шу билан бирга, мулк дахлсизлиги инвестициявий жозибадорликни таъминловчи энг муҳим факторлардан бири ҳисобланади.

Мамлакатимизда Президентимизнинг 2020 йил 7 сентябрдаги “Ер ҳисоби ва давлат кадастрларини юритиш тизимини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги Фармони асосан кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш, геодезия, картография ва давлат кадастрларини юритиш соҳасида халқаро ҳамкорликни ишлари йўлга қўйилган. Ўтган давр мобайнида ҳамкорлик кўламини кенгайтириш, хорижий тажрибани ўрганиш, амалга оширилаётган ислохотларда чет эл экспертлари хулосаларини олиш борасида бир қатор ишлар амалга оширилмоқда[3].

Масалан, 2021 йилнинг апрель ойидан бошлаб жаҳон банки экспертлари билан биргаликда Кадастр агентлиги, Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги вакиллари иштирокида ердан фойдаланиш режими, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер баҳосини аниқлаш усуллари, шаҳар ҳудудларида ер баҳосини аниқлашни оптимизация қилиш каби мавзуларда амалий ишлар қилинмоқда. Ноябрь ойида эса Жаҳон банкининг Ер ва геофазовий аспекти бўйича юқори даражадаги Миссия вакиллари ташрифи бўлиб ўтди. Халқаро молиявий институт вакиллари яратган платформа доирасида Ер ислохотларини ривожлантириш бўйича идоралараро конференция ҳамда Ўзбекистон ва Грузияда ер ислохотларини амалга ошириш тажрибасини таққослаш орқали минтақавий билим–тажриба алмашинуви амалга оширилган[6].

2022 йилнинг 15-16 март кунлари ер кадастри тизимини ривожлантиришга урғу бериш, ер геофазовий ва статистик маълумотлардан интеграцион ҳолда фойдаланиш бўйича Марказий Осиё давлатларининг институционал салоҳиятини ошириш ҳамда идоралараро ҳамкорликни ривожлантириш мақсадида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Осиё ва Тинч океани иқтисодий ва ижтимоий комиссияси билан ҳамкорликда Марказий Осиёда Ер кадастри маълумотлари ҳамда ер геофазовий ва статистик маълумотлардан комплекс фойдаланиш бўйича бир қанча ишлар амалга оширилди.

Ер кадастри муносабатлари ва ер ресурсларидан самарали фойдаланиш ҳар қандай жамиятда доимо бош масала ва асосий муаммолардан бири бўлган. Шу нуқтаи назардан ҳам мамлакатимизда ер кадастри маълумотларидан фойдаланган ҳолда ҳудудларни ривожлантириш ҳамда иқтисодий самарадорликка эришиш йўналишларини барқарорлаштириш ниятида дунёнинг ривожланган давлатларидан ер кадастри тизимини бўйича билим ва кўникмаларни ўзлаштириш зарурий тадбирлар ҳисобланади.

АҚШ да дастлаб ерларга аҳолини зудлик билан жойлаштириш, кейин эса шунчаки солиққа тортиш учун 1785 йилда кадастр ташкил топган[5]. Ҳозирга қадар ерларни рўйхатга олиш марказлаштирилмаган, яъни кадастр тизимини юритиш ва шунга тааллуқли ҳужжатлаштириш ишлари билан 39 та маҳаллий департамент шуғулланади. 3000 дан ортиқ ерни рўйхатга олувчи бюрлар мавжуд. Ер кадастри тизими 3 асосий вазифани амалга оширишга йўналтирилган:

- 1) Солиққа тортиш учун маълумот базаси;
- 2) Ер эгаларининг ҳуқуқлари тоғрисида маълумот базаси;
- 3) Ердан жорий ва потенциал фойдаланиш мониторинги.

Кўп мақсадли кадастр тизими маълумотлар базасига:

1. Графикли матн шаклидаги ҳуқуқий тавсиф

2. Ер-мулк ҳисоби ҳар бир ер участкаси (тупроқ хусусиятлари, ландшафт) ҳақида маълумот
3. Бозор маълумотлари нархлар ва харажатлар, сотиб олиш ва ижарага бериш саналари, яъни бозорга қизиқиш тўғрисидаги маълумотлар
4. Ердан фойдаланиш каби маълумотлар киритилган

Ерни рўйхатдан ўтказиш Европа Ассоциацияси (ELRA - The European Land Registry Association) — халқаро ноtijорий ташкилот ҳисобланади. 2004-йилнинг октябр ойида ерни рўйхатдан ўтказувчи бир гуруҳ ташкилотлар Европа Иттифоқи давлатларидаги ер реестри ташкилотлари манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида алоҳида уюшма яратиш вақти келди, деган қарорга келишади. Бу ташаббус собиқ Адлия ва Ички ишлар комиссари жаноб Антонио Виторино томонидан қўллаб-қувватланди. Аввалига унга 12 та давлат аъзо бўлган бўлса, ҳозирги кунда 22 та аъзо давлатлардан рўйхатдан ўтказувчи жами 31 та вакил ташкилот фаолият олиб боради. Бу кўрсаткич ўсишда давом этмоқда.

Ташкилотни тузишдан мақсад — ер реестри маълумотларининг очиқлиги ва шаффофлигини ошириш ҳамда трансчегаравий ҳужжатларни расмийлаштиришни осонлаштиришдан иборат.

Ташкилотда жорий этилган ерни рўйхатга олиш тизимларини тартибга солувчи қоидалар ҳар бир мамлакатдаги ер ва кўчмас мулк ҳуқуқларини тартибга солувчи қонунлар билан чамбарчас боғлиқ. Мазкур қонунлар ҳар бир тизимнинг анъаналарига асосланади, шунинг учун Европа шартномаларида “Ҳамжамият қонуни ҳар бир давлатдаги мулк тизими устидан хулоса бериш ҳуқуқини назарда тутмайди” деб белгилаб қўйилган.

Ташкилот миссияси — фуқароларга хизмат кўрсатадиган ва уларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қиладиган очиқ ва хавфсиз Европа қуриш, мулкни рўйхатдан ўтказувчи ташкилотлар ўртасида ўзаро ҳамжихатлик ва ҳамкорликни таъминлашдан иборат.

Францияда кадастр илк маротаба 1789 йилги француз инқилоби даврида пайдо бўлган. Францияда ҳудудий режалаштириш жараёнида минтақалар урбанизациялашган ҳудудлар, ўрмон ва қўриқхоналар билан банд бўлган ерлар ва махсус ихтисослашган ҳудудларга бўлинади[6].

Дастлаб солиқ миқдорини аниқлаш мақсадида солиқ (фискал) кадастри тузилган. Франция ер кадастрининг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат: кадастр планларини тузиш, ер участкаларига эгалик ҳуқуқини аниқлаш, уларнинг майдонларини ўлчаш, ерни ва кўчмас мулкни ҳисоблаш.

Кадастр фаолияти Тулуза шаҳрида жойлашган миллий кадастр хизмати томонидан, Париждаги давлат кадастр ҳужжатлари хизмати идораси ва давлат

департаментларида жойлашган минтақавий солиқ бошқармалари томонидан юритилади. Давлат кадастр хужжатлари хизмати фаолиятининг эса кадастр планларини тузиш ва уларни сақлашдир.

Ҳозирда Францияда ер кадастрининг автоматлаштирилган тизими ишлаб турибди. Тизимга 5 минтақавий ҳисоблаш маркази ва 306 маҳаллий кадастр бюроси киради. Булар солиқ бошқармаларини ўзларининг маълумотлар банкидаги кадастрга доир сўнгги маълумотлар билан таъминлайди.

Буюк Британияда кадастр тизими қуйижагича олиб борилади: “Ҳазрати олийларининг ер-мулк реестри” (Her Majesty Land Register) - ер-мулк ёки унвон реестри- 1862-йилда ташкил этилган; онлайн тарзда барча фуқаролар учун очик; замонавий кадастр тизими 1925-йилда қабул қилинган қонунга асосланади; тизимда асосий ролни Буюк Британия геодезия хизмати ва Ҳазрати Олийларининг ер-мулк реестрида (ёки Қироллик реестри); тизим 3та расмий реестрдан иборат: кўчмас мулк, хусусий мулк ва чекланган мулк; тизимнинг асосий вазифаси - ер-мулк ҳуқуқларини тасдиқлашнинг содда ва ишончли тартибини таъминлаш;

Буюк Британияда ер-мулкка эгалик қилишнинг 2 хил кўриниши мавжуд: ерга эркин эгалик ҳуқуқи ва номинал йиллик ер ижараси эвазига маълум муддатга бериладиган ерга эгалик ҳуқуқи[6].

Ҳозирда барча кўчмас мулк ўтказмалари “Ерни давлат рўйхатидан ўтказиш” номли компьютер тармоқлари тузилмаси орқали 19та ҳудудий идоралар томонидан амалга оширилади. Потенциалнинг профессионал фазилатларини талаб қилиш ижарачилар: қишлоқ хўжалиги соҳасида иш тажрибаси, стартнинг мавжудлиги – капитал.

Кадастр фаолиятини молиялаштиришнинг аралаш тизими хизматлар, зарур маблағларнинг тахминан 50% қуйидагилар орқали ишлаб чиқарилади ишларни бажариш, картографик маҳсулотларни сотиш ва пуллик хизматлар, баҳолашнинг асосий тури бозор қиймати ҳисобланади.

Республикамиздаги мавжуд кадастр тизими фаолиятини молиялаштириш асосан пуллик хизматлар, аукцион ва ер муносабатларини давлат рўйхатидан ўтказишдан таъминланади. Ер участкалар ва кўчмас мулк хужжатларини расмилаштиришда лойихалаштириш ишлари асосан хусусий лойихалаш секторларига мурожат қилинади, бу сакторлар давлат хизматлари марказлари ёки ягона интерактив давлат хизматлари портали билан интеграция қилинмаган.

Шуни таъкидлаш жойизкий ривожланган давлатларнинг ҳеч бирида қишлоқ хўжалиги ерларининг олди-сотдиси таъқиқланмаган. Фақат айримларида ер участкаларини сотишда ҳамда сотиб олишда ўзига ҳос чегаралар, чекловлар қўйилган. Республикамизда эришилган ютуқларни янада мустаҳкамлаш ўз

навбатида бу борадаги хорижий мамлакатлар қонунчилигига мурожаат этиш, уларнинг ижобий тажрибасидан фойдаланниш истиқболларини аниқлаш заруриятини келтириб чиқармоқда. Таъкидлаш лозимки, хорижий мамлакатларда ер ҳуқуқининг ривожланиши хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, ушбу давлатларни икки гуруҳга ажратиш ўрганишимиз мумкин: бозор иқтисодиёти ривожланган ва ер муносабатларини ҳуқуқий тартибга солишнинг барқарор тизими ишлаб чиқилган давлатлар ва ер ислоқотлари амалга оширилаётган ривожланган давлатлар.

Янада шуни айтиш лозимки, бозор иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда ер муносабатларини ҳуқуқий тартибга солиш аллақачон барқарорлик касб этиб улгурган ва нисбатан юқори даражада амалга оширилмоқда. Ушбу давлатларда ер ҳуқуқининг асосий институти мулк ҳуқуқи институти бўлиб, у хорижий мамлакатлар ер ҳуқуқининг бошқа институтларига ҳам ўз таъсирини кўрсатади ва шунга кўра, ушбу давлатлар ер қонунчилигида ва ер-ҳуқуқий адабиётларида ҳақли равишда марказий ўринни эгаллаган.

Ерга нисбатан мулк муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш назарияси ва амалиётига хорижий мамлакатларда ҳуқуқни оммавий ва хусусийга бўлиш анъанаси сезиларли таъсир кўрсатади. Хорижий мамлакатларнинг замонавий ер ҳуқуқида мулкнинг, хусусан ер мулкчилигининг “ижтимоий функцияси” назарияси кенг тарқалган ва ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланган бўлиб, у ерга нисбатан мулкчилик муносабатларига давлат аралашувининг заруриятини асослайди ва ер мулкдорининг ҳуқуқлари доирасини оммавий манфаатлар нуктаи назаридан чеклашни кўзда тутаяди ва бу оммавий манфаатларнинг хусусий манфаатлардан устун туриши билан асослантрилади. Ерга нисбатан давлат ва хусусий мулкчилиги билан бир қаторда хорижий мамлакатларда ер ижараси шартномаси ва ижара муносабатлари алоҳида аҳамиятга эга. Хорижий мамлакатлар ер қонунчилигида ер ижараси, ижарачиларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, ер участкаси ижарачиларининг ҳуқуқ ва манфаатларининг кафолатлари масалалари атрофлича тартибга солинган. Хорижий мамлакатлар ер ҳуқуқида ер муносабатлари субъектларига ҳам алоҳида ўрин ажратилган. Ушбу институт нафақат ер, бапки бир қатор бошқа ҳуқуқ соҳаларига ҳам таъсир этиши билан аҳамиятлидир. Хорижий мамлакатларда рўй бераётган ер ислоқотларини таҳлил қилиш асосида уларни тўрт гуруҳга ажратишимиз мумкин: Шарқий Европа, Жанубий-Шарқий Осиё, Лотин Америкаси ва Африка. Шарқий Европа давлатлари - Болгария, Венгрия, Германия, Польша, Руминия, Словакия, Чехия, Югославия учун – ер ислоқотларининг асосий йўналишлари - ерларни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш, давлат ва кооператив кишлққ хўжалик иқтисодиёти соҳаларини қайта ташкил этиш, деҳқон (фермер) хўжаликларини ташкил этиш ҳисобланади. Ушбу мамлакатларда ер ислоқотларининг хусусияти – реституция тўғрисидаги

коиданинг - яъни, кучмас мулк, биринчи навбатда ерни собик эгаларига кайтаришнинг норматив мустахкамланишида ифодаланади[6].

Шуни айтиш кераккий чет ел фуқоролари мамлакатимиз ерларидан айниқса қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан фойдаланиш бўйича белгиланган тартибда ижара ҳуқуқи асосида иш олиб боришлари мақсадга мувофиқ бўлади. Шу билан улар томонидан жорий қилинган инвестициявий, инновацион, илмий-технологик тажрибаларидан ерлардан самарали фойдаланиш амалиётида фойдаланиш муҳимдир.

Бир қанча ривожланган давлатларда қонун бўйича рухсат берилган кредит олишда ерларни кафолат сифатида қоллаш мумкин. Умуман олганда хорижий мамлакатларда бир-биридан фарқ қиладиган ер муносабатларини тартибга солиш усуллари мавжуд . лекин ҳаммаси учун умумий бўлган тамойиллар ҳам бор (1-расм). Аслида ўзимиз учун мос бўлган жихатларидан ер муносабатларини тартибга солиш, ерлардан самарали фойдаланиш, ер ижараси, ерларни иқтисодий ресурсга айлантириш чора тадбирларида фойдаланиш зарур.

Ер кадастри жараёнларида ҳукумат сиёсати ва иқтисодий ислоҳатлар амалга оширилаётган вақтда републикамизда ерларини ҳуқуқий муҳофаза қилиш ҳамда ундан самарали ва оқилона бошқаришга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Бу борада бир қанча қонунлар ва қонуности ҳужжатлар, актлар қабул қилинди, унга кўра мазкур қонун ҳужжатлан ҳозирги Ўзбекистон шароитида ер билан боғлиқ муносабатларни тартибга солишда алоҳида аҳамият касб этади.



1–расм. Чет давлатларда ер кадастри жараёнларини тартибга солиш бўйича белгиланган тамойиллар

Бизнингча ер кадастрини билан боғлиқ жараёнларининг шаклланиши куйидаги омилларга боғлиқ:

1. Мамлакат бутун ер фонди унинг маъмурий чегараси доирасида давлат худудини ташкил этади;
2. Айни пайтда ер фонди (унинг таркибидаги ер участкалари) табиий ресурс сифатида экологик тизимнинг таркибий қисми ҳисобланади;
3. Сўнгги йилларда мамлакатимизда аҳоли сони ниҳоятда тез суъратларда ўсаётганлигини инобатга олсак, ернинг қиймати янада ошиб бормоқда;
4. Ўзбекистон иқтисодиёти бозор муносабатларига асосланган;
5. Соҳада замонавий ахборот коммуникацион технологиялари, интернет тармоғидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, хусусан ер

участкаларининг давлат кадастрини юритиш, ер мониторингини амалга ошириш тўлиқ рақамлаштирилиши лозим;

6. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан уларнинг муҳофазасини таъминлаган ҳолда, оқилона ва самарали фойдаланиш зарур, чунки бу ерлар аҳолини бирламчи озиқ-овқат маҳсулотлари ва кийим-кечак билан таъминлайди.

Шу билан бирга қишлоқ хўжалигини саноатлаштириш, бунда қишлоқ хўжалик субъектларининг замонавий шакл ва бошқарув асосларини яратиш зарур;

7. Фуқаролар ва юридик шахсларга ер участкаларини ажратишнинг шаффоф, мукамал механизмини яратиш ишлари яқунланиши зарур;

8. Ер ресурслари давлат бошқарувида жамоатчиликнинг иштироки ва назорати кенгайтирилиши зарур;

9. Фуқароларнинг ерга оид ахборот олиш ҳуқуқи тўла таъминланиши керак.

Мамлакатимиз аҳолисининг асосий қисми қишлоқ жойларда истиқомат қилиб, уларнинг меҳнат фаолиятида асосан қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариши билан бандлигини инобатга оладиган бўлсак, Ўзбекистон шароитида фуқароларнинг турмуш даражаси айниқса ердан оқилона, илмий асосланган тарзда ва тўғри фойдаланишнинг ташкил этилиши ниҳоятда муҳим аҳамият касб этишини кўрамыз.

Шу асосда ер кадастрини бошқариш тизимини 2030-йилгача бўлган даврда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, ер кадастри малумотларидан иқтисодиётни ривожлантиришда барқарор фойдаланишни таъминлаш учун келгуси 5 – 6 йил ичида ердан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш соҳасидаги давлат сиёсати концепциясини ишлаб чиқиш ва ер кадастри тизимининг ва уни муҳофаза қилиш самарадорлигини ошириш бу бўйича давлат дастурини ишлаб чиқиш зарур. Шу жумладан қишлоқ хўжалик ерларини тўлиқ давлат рўйхатидан ўтказишни, ерларни кадастр баҳолашни такомиллаштириш зарур. Шаҳар худудларининг ихчамлиги ва мувозанати тамойилларига риоя қилган ҳолда қурилаётган ер майдони, йўллар ва бошқа транспорт коммуникацияларини оптималлаштириш, шаҳарлар ижтимоий инфратузилмасини босқичма-босқич ривожлантириш, масофадан зондлаш маълумотлари, географик ахборот тизимлари ва IT-технологияларидан фойдаланиш асосида ердан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш устидан давлат назоратини самарали тизимини яратиш каби чора-тадбирлар белгилаб олиш зарур.

Туман иқтисодий тизими-маълум фазовий ўлчамларга эга ва мураккаб минтақавий тизим ҳисобланади. У туманнинг иқтисодий тизими:

➤ ишлаб чиқариш ва меҳнат салоҳияти;

- ишлаб чиқариш кучларининг самарали жойлашуви;
- аҳолининг турмуш даражаси ва сифати;
- маҳаллий бошқарув органларининг фаолиятини ўз ичига олади.

Ер кадастри маълумотларидан фойдаланишни режалаштириш иқтисодий ривожланиш истикболларига мувофиқ ер тақсимотини яхшилаш, ҳудудни ташкил этишни такомиллаштириш ва аниқлаш мақсадида амалга оширилади. Барча хорижий мамлакатларда иқтисодиётнинг энг муҳим сегменти сифатида агросаноат мажмуасида талаб қиладиган узоқ муддатли прогнозлар ва дастурларнинг нормал ривожланиши учун умумий ўхшашлик мавжуд. Фақат узоқ муддатли прогнозлаш қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг асосий соҳаларига оқилона инвестиция киритиш имконини беради.

Ортга назар ташалаганда, кадастр соҳасида ҳамкорлик географиясини кенгайтириш фаоллашиб бораётганини кўрамиз. 2017 йилдан то бугунга қадар Корея, Беларус, Россия, Хитой, Тожикистон каби бир неча давлатлар билан мустақкам алоқалар ўрнатилган бўлса, бугунги кунда улар қаторига Сингапур, Грузия, Туркия, Озарбайжон, Шарқий Европа давлатлари ҳам қўшилиб бормоқда[5].

Туркий давлатлар билан ҳамкорлик ҳақида сўз юритар эканмиз, Озарбайжон билан ер муносабатлари, кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш, давлат кадастрларини юритиш соҳасида тажриба алмашиш, шунингдек, бу борада электрон хизматлар кўрсатиш истикболларини ўрганиш юзасидан ҳамкорлик ўрнатиш таклифи берилган ва мазкур таклиф Ўзбекистон Республикаси ва Озарбайжон Республикаси ўртасида ҳамкорликни ривожлантириш бўйича Ҳукуматлараро қўшма комиссиясининг 11-йиғилиш баённомасида ўз аксини топган[6]. Яқин вақтларда ерга бўлган ҳуқуқларни ишончли ҳимоя қилиш, ер қонунчилигининг бузилиши ҳолатларини тезкорлик билан аниқлаш ва бартараф этиш, кадастр соҳасида давлат хизматларини кўрсатиш ва такомиллаштириш, хусусийлаштириш борасида Шарқий ва Ғарбий Европа давлатлари билан алоқа ўрнатиш арафасида

турибди. Мазкур давлатлар билан тажриба алмашиш ер қонунчилигига риоя этилишини назорат қилиш усуллари ўрганиш, шу жумладан, ер участкаларини ўзбошимчалик билан олиб қўйиш, ердан нотўғри фойдаланиш ҳолатларини тезкорлик билан аниқлаш борасида ишлаб чиқиладиган қонунчилик ҳужжатларига ўзининг таъсирини кўрсатмай қолмайди.

Тан олиш жоиз, ер муносабатлари ва кўчмас мулк соҳаси мураккаблик ва зиддиятларга тўла йўналиш ҳисобланади. Шу боис, ҳукумат ва тегишли ташкилотлар олдида 35 миллиондан ортиқ инсон тақдири билан узвий боғлиқ ер ва кўчмас мулк муносабатларини ислоҳ қилишда ҳар қачонгидан кўра масъулиятли вазифа тургани исбот талаб қилмас ҳақиқат.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда барча вазирлик ва идораларда тўрт нарсага кучли урғу берилганлигини кузатишимиз мумкин. Жисмоний ва юридик шахсларга кўрсатиладиган давлат хизматларини ахборотлаштириш, соҳани рақамлаштириш, очиқлик сиёсатини юритиш, давлат ташкилоти ўзи эгаллаб турган баъзи функцияларни хусусий секторга ўтказиши шулар жумласидан.

Ўз навбатида, бизда ҳам кун тартибига киритадиган мавзуларимиз юқоридаги йўналишлардан келиб чиқиб белгиланади. Яъни геоахборот тизимлари, фазовий маълумотлар инфраструктураси, давлат хизматларини такомиллаштириш, иш фаолиятини инсон омили аралашувисиз амалга ошириш бўйича янги технология ва ечимлар излаш ва ўрганиш устида доимий изланишлар олиб борилади.

Умуман, ер ва мулк муносабатлари бевосита инсон манфаатлари билан боғлиқ экан, уни мунтазам такомиллаштириб бориш, қонунчилик базасини мустаҳкамлаш муҳим саналади. Халқаро ҳамкорлик алоқалари эса бу борада замонавий ечимларни қўллаш, жаҳон андозалари асосида тизимни такомиллаштиришга хизмат қилади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг ер кодекси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.10.2020 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги кадастр агентлиги фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-405-сон қарори
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.09.2020 йилдаги “Ер ҳисоби ва давлат кадастрларини юритиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6061-сон Фармони.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат ер кадастри тўғрисида”ги Қонуни, 1998 йил 28 август.
5. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти//Т.1997й.
6. www.norma.uz

EXPLORING THE FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING

Burieva Mukhayyo Shavkatovna

Termiz University of Economics and Service

Contact number: +998 97 350 53 35

Abstract: This article delves into the multifaceted functions of code-switching, a linguistic phenomenon characterized by the alternating use of two or more languages within a single conversation. By exploring the diverse dimensions of code-switching, including identity expression, group solidarity, semantic precision, social marking, creativity, and adaptation to context.

Key words: multilingual communication, identity expression, social solidarity, linguistic creativity.

Аннотация: В данной статье рассматриваются многогранные функции переключения кода — лингвистического феномена, характеризующегося попеременным использованием двух или более языков в рамках одного разговора. Изучая различные аспекты переключения кода, включая выражение идентичности, групповую солидарность, семантическую точность, социальную маркировку, творчество и адаптацию к контексту. **Ключевые слова:** многоязычное общение, выражение идентичности, социальная солидарность, языковое творчество.

Code-switching, the dynamic and intriguing linguistic practice of alternating between two or more languages or dialects within a single conversation or discourse, offers a fascinating window into the complex interplay of language and communication. This article delves into the nuances of code-switching, exploring the diverse types of this phenomenon and uncovering the functions that underlie its usage in multilingual environments.

In today's interconnected world, where multilingualism is increasingly common and cultural diversity prevails, the ability to seamlessly transition between languages is a valuable communicative skill. Code-switching serves as a vibrant tapestry woven into the fabric of everyday language use, showcasing the fluidity and adaptability of human communication across linguistic boundaries.

By examining the various types of code-switching and unraveling the functions that drive this linguistic phenomenon, we embark on a journey to unravel the layers of

meaning, social cues, and cognitive processes embedded within the practice of code-switching. Through this exploration, we aim to deepen our understanding of how individuals navigate the complex landscape of multilingual communication, harnessing the power of different languages to express thoughts, emotions, and cultural identities in nuanced and profound ways.

Code-switching, the artful blending of languages within a single interaction, is a linguistic phenomenon that transcends cultural boundaries and enriches communication in multilingual settings. This article delves into the multifaceted functions of code-switching, shedding light on how this versatile practice serves as a powerful tool for conveying meaning, establishing social connections, and showcasing linguistic dexterity.

Exploring the Functions of Code-Switching:

- 1. Pragmatic Precision:** Code-switching plays a crucial role in enhancing pragmatic precision in communication. Speakers may switch between languages to express nuanced meanings, clarify concepts, or emphasize particular points that a single language may not fully capture. By harnessing the strengths of different languages, speakers can tailor their communication to suit the context and convey intended messages effectively.
- 2. Social Signaling:** One of the key functions of code-switching is its role in social signaling. By engaging in code-switching, speakers can signal aspects of their identity, cultural affiliations, or group membership. Code-switching can serve as a marker of belonging to a specific community, fostering solidarity, and reinforcing social bonds through shared linguistic practices.
- 3. Emotional Expression:** Code-switching offers a unique avenue for emotional expression, allowing speakers to convey feelings, attitudes, and personal stance with depth and authenticity. Whether expressing affection, humor, or frustration, code-switching enables speakers to tap into the emotive nuances of different languages, enriching communication with emotional resonance and subtlety.
- 4. Cognitive Flexibility:** Beyond its communicative functions, code-switching also demonstrates cognitive flexibility and linguistic prowess. Bilinguals adept at code-switching demonstrate the ability to navigate between languages effortlessly, drawing on diverse linguistic resources for problem-solving, creativity, and cognitive tasks. Code-switching can stimulate cognitive processes, enhancing mental agility and linguistic dexterity.

5. Cultural Connection: Code-switching serves as a bridge that connects individuals to their cultural heritage, traditions, and linguistic roots. By seamlessly blending languages, speakers can evoke cultural nuances, references, and shared experiences, fostering a sense of cultural connection and enriching cross-cultural communication with depth and authenticity.

Code-switching, the seamless alternation between languages within a conversation, offers a rich tapestry of functions that go beyond mere linguistic versatility to encompass social, cultural, and cognitive dimensions. Let's delve deeper into the diverse functions of code-switching and unravel the complexities that underlie this fascinating linguistic phenomenon:

- Identity Expression: Code-switching serves as a powerful tool for expressing identity constructs. By toggling between languages, speakers can signal aspects of their cultural background, ethnicity, or social identity. Whether consciously or unconsciously, code-switching reflects how individuals navigate various aspects of their identity and present multifaceted selves within different linguistic contexts.
- Group Solidarity: In social interactions, code-switching can foster a sense of group solidarity and collective identity. Within a community of speakers sharing multiple languages, code-switching serves as a means of building rapport, establishing common ground, and reinforcing group cohesion. By mirroring each other's code-switching patterns, speakers strengthen bonds and create a sense of belonging within the linguistic community.
- Creativity and Playfulness: Code-switching can also be a vehicle for creativity, playfulness, and linguistic experimentation. Speakers may engage in code-switching for stylistic purposes, humor, or aesthetic appeal, infusing conversations with a sense of spontaneity and originality. This function of code-switching highlights its dynamic and expressive nature, allowing speakers to play with language boundaries and push the boundaries of linguistic norms.

In conclusion, the functions of code-switching are far-reaching and multifaceted, encompassing a spectrum of socio-cultural, communicative, and cognitive dimensions. By exploring the diverse functions of code-switching, we gain insight into the intricate ways in which language shapes our interactions, identities, and social connections. The functions of code-switching extend far beyond mere linguistic mixing; they encompass a rich tapestry of pragmatic, social, emotional, cognitive, and cultural dimensions that enhance communication in diverse multilingual contexts.

REFERENCES:

1. Heller, M. (2011). Codeswitching: Anthropological and Sociolinguistic Perspectives. Berlin: Mouton de Gruyter.
2. Auer, P. (1998). Code-switching in Conversation: Language, Interaction, and Identity. London: Routledge.
 1. 3. Turaeva, U. (2021). Comparative study of uzbek and english legal terms legal linguistics: historical foundations, basic concepts and aspects. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.6 Philological sciences).
4. Myers-Scotton, C. (1993). Social Motivations for Codeswitching: Evidence from Africa. Oxford: Oxford University Press.
5. Milroy, L., & Muysken, P. (1995). One Speaker, Two Languages: Cross-Disciplinary Perspectives on Code-Switching. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Poplack, S. (1980). Sometimes I'll start a sentence in Spanish Y TERMINO EN ESPANOL: Toward a typology of code-switching. Linguistics, 18(7-8), 581-618.
7. To'rayeva, U. (2023). THE ORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF TRANSLATION OF TERMS. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(4), 64. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a64
8. Абдиназаров, У. (2023). Ingliz va o'zbek tillarida gippologik terminlarning lingvistik tadqiqi. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(9).
9. Allayev Zafar. (2024). Development of oneirosphere in traditional china. "xxi asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 2(2), 59–63.

AFORIZM VA MAQOL TUSHUNCHALARINING TALQINI VA O'RTASIDAGI FARQ

Narmuratov Zayniddin Rajapovich

Termiz davlat universiteti (PhD)

Safarmurodov Ilxom To'raqulovich

Termiz davlat universiteti magistri

Annotatsiya: O'zbek tili - boy imkoniyatlarga ega til. Tilimizning o'ziga xos xususiyatlari uning qimmatini belgilaydi. Tilimizning tasviriy ifodalarga boyligi, bo'yoqdorligi maqollarda ham namoyon bo'ladi. Dono xalqimiz milliy madaniyatini, mentalitetini, so'z boyligini aforizmlar va maqollar orqali ham namoyon qiladi. Ushbu maqolada aforizm va maqol tushunchalarining talqini va o'rtasidagi farq haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Aforizm , maqollar, xalq og'zaki ijodi, madaniyat, hikmatli so'zlar.

Xalqimiz boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, aforizm, matal va iboralarni o'rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg'ular tasvirini ko'rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. O'zbek xalq maqollari, matallari va iboralarini o'rganish bugungi kunda nafaqat adabiyotshunoslik, tilshunoslikning ham oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Maqol va matallar, aforizmlar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o'stiradi, ularni to'g'riso'z, rostgo'y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo'lishiga o'rgatadi, kishidagi eng insoniy fazilatlarni targ'ib etadi. Biz og'zaki so'zlashuvimizda juda ko'p marotaba maqollarga murojaat etamiz. Maqol xalqimizning yillar davomida shakllangan og'zaki nutqining namunasi sanaladi. "Maqol" atamasi arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan. O'zbek xalq maqollari tilimizda qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biror so'zni qo'shish mumkin emas. Maqollar xalqimizning milliy, madaniy-ma'naviy avloddan-avlodga o'tib kelayotgan merosi hisoblanadi. Bu meros madaniyatimizning ham namunasi sanaladi. Til va madaniyatning o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganish imkonini beradi. Maqollar – bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig'isi,

shodligi va sevinchi, qaygʻusi va ovunchi, bu xalq haqiqati, uni toʻgʻri yoʻlga eltuvchi mayoqdir. “Xalq asrlar mobaynida toʻplagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho meros namunasi hisoblanadi. Ular zamonlarosha xalq donishmandligining muhim manbai sifatida, ogʻizdan – ogʻizga oʻtib, sayqallanib kelgan. Maqollar xalq ogʻzaki ijodining boshqa janrlari singari har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy – madaniy xususiyatlari va uning qirralarini, dunyoqarashi, axloqiy meʼyor va prinsiplarini, millatning ruhiy holatini toʻliq ifodalaydi”. Oʻzbek maqollarining oʻrganilish tarixi: oʻzbek xalq durdonalarini, oʻzbek xalq ijodining ommaviy janrlaridan biri boʻlgan maqollarni toʻplash va oʻrganish tarixi ham, ulardan yozuvchi va olimlarning oʻz asarlarida foydalanishi ham uzoq davrlarga borib taqaladi. Xususan, XI asrning buyuk olimi M. Koshgʻariy oʻzining “Devonu lugʻatit turk” asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Bu asar yolgʻiz oʻsha davr tilidagi soʻzlarni izohlovchi kitobgina emas, balki shu vaqtda butun Oʻrta Osiyo doirasida, yaʼni, Yuqori Chindan tortib Movorounnahr, Xorazm, Fargʻona, Buxoroga qadar choʻzilgan keng va katta hududda yashagan urugʻ, qabila, xalqlar, ularning tillari, oʻsha davr xalq ogʻzaki ijodiy maqollari toʻgʻrisida ham maʼlumot beruvchi noyob filologik asardir. Ota-bobolarimizning “Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilur; baliq bilmasa Xoliq bilur”, “Oʻng qoʻling bersin, chap qoʻling bilmasin” kabi fikrlari mustahkam tarbiya sifatida avlodlarga meros boʻlib qolgan. Maqollar folkloristik nuqtayi nazaridan folklorshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xalq ogʻzaki ijodi boʻlgan maqollar toʻplanib, tasniflangan va kitob holida nashr qilingan. Maqollarning oʻrganilishi oʻzbek millatining boy tarixini koʻrsatish bilan birga milliy madaniyatini ham oʻzida namoyon qiladi.

Aforizm (yunoncha aphorismos – hikmatli soʻz) – qisqa, lekin chuqur maʼnoli, muallifi aniq gap, hikmatli soʻzlar. Aforizmning asosiy qoidasi sifatida shaklan ixcham, obraz va fikrga boy, his-tuygʻu, xulosa va holatni aniq, mukammal aks ettirish, kuchli emotsional va intellektual taʼsir kuchiga ega boʻlish aforizmning asosiy xususiyatidir. Aforizm mavzu jihatdan cheklanmagan, barcha sohalariga oid masalalarni aks ettirishi mumkin. Eng muhimi, u fikrni xalq tiliga yaqin, uning ruhiga mos qilib ifoda etadi. Shuning uchun ham xalqning ruhi va fikr-qarashlarini ifoda etadigan aforizmlar tez ommalashib, umummilliy shiorga aylanib ketadi. Aforizm soʻzi har bir inson uchun turli xil tushunchaga ega. Kimdir uni oʻz kayfiyatini koʻtarish uchun oʻqisa, kimdir hayot tajribasini oshirishga va donishmandlardek fikrlash uchun oʻqiydi, kimdur esa kerakli vaqtda, davralarda ushbu aforizm soʻzlarini ishlatish uchun oʻqiydi. Aforizm - bu soʻzlardan tashkil

